

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 04 | pp. 540-545 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING ILMIY VA USLUBIY JIHATLARI



Xotamov Javohir Abdusharop o'g'li,
TDIU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: javohirxatamov1995@gmail.com

Annotasiya: Maqolada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash ilmiy va uslubiy jihatlari tadqiq etilgan. Mamlakatimizda iqtisodiy xavfsizlik masalalari nazariy va uslubiy jihatlari o'rgangan olimlarning tadqiqotlariga ilmiy jihatdan to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlarining iqtisodiy xavfsizlik borasida tadqiqotlari o'rganilgan holda muallif qarashlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy xavfsizlik, globallashuv, xavf-xatarlar, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi islohotlar.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: В статье исследованы научно-методические аспекты обеспечения экономической безопасности. В нашей стране научно обсуждаются исследования ученых, изучающих теоретические и методологические аспекты проблем экономической безопасности. Кроме того, предложения и рекомендации разработаны на основе взглядов автора, изучения исследований ученых стран СНГ по вопросам экономической безопасности.

Ключевые слова: экономическая безопасность, глобализация, риски, реформы в сфере экономической безопасности.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ASPECTS OF ENSURING ECONOMIC SECURITY

Abstract: The article examines the scientific and methodological aspects of ensuring economic security. In our country, the research of scientists studying the theoretical and methodological aspects of economic security problems is being scientifically discussed. In addition, proposals and recommendations are developed based on the views of the author, studying the research of scientists from the CIS countries on issues of economic security.

Key words: economic security, globalization, risks, reforms in the field of economic security.

1. Kirish

Jahon miqyosda tus olayotgan global xavf-xatarlarining ortib borishi insoniyatni tashvishga solmoqda. Shu bois, har bir davlat mamlakat xavfsizligi va tarmoqlararo iqtisodiy xavfsizlik choralarini ko'rishi maqsadga muvofiq.

Dunyo hamjamiyati e'tiborini tortayotgan global tahdid va xavf-xatarlarning yildan-yilga ortib borishi jahon mamlakatlarini doimiy ogohlikka chorlagan holda vaziyatga qarab ish tutishini talab etadi. Shu bois, jahon e'tiborini talab etayotgan dolzarb masalalardan biri sifatida iqtisodiy tahdidlar va xavf-xatarlarni oldini olish va bartaraf qilishga oid keng ko'lamli islohotlarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatida "Xalqaro munosabatlarda o'zaro ishonch kamayib, qarama-qarshilik va mojarolarning ortishi barqarorlik va rivojlanishga jiddiy xavf solmoqda. Afsuski, bunday xavf-xatarlar bizni ham chetlab o'tmayapti[1].

Murojaatda ta'kidlangan fikrlarga ko'ra, hozirgi tahlikali vaziyatda jahondagi vaziyatni hisobga olgan holda tashqi muhitdagi tahdid va xavf-xatarlarni hisobga olib harakat choralarini ko'rish, mamlakatimiz iqtisodiyotining tashqi muhit ta'sirida barcha tarmoq va sohalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarga javob beradigan darajada yangicha yondashuvni shakllantirishimiz maqsadga muvofiq.

2. Adabiyotlar sharhi

Iqtisodiy xavfsizlik fani rivojiga hissa qo'shgan iqtisodchi olimlardan X.S.Asatullaev, A.A.Mamatov, T.T.Jo'raevlar ham bu borada o'z nazariy qarashlari asosida ta'rif berishgan. Olimlarning nazariy yondashuvlariga ko'ra "Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi bevosita milliy iqtisodiyot darajasida makroiqtisodiy kategoriya sifatida muayyan mamlakat milliy iqtisodiyotini tavsiflashi hamda bozor tizimida turli xatarlar borligidan ogohlantiruvchi vosita bo'lib, hatto milliy iqtisodiyot ham bundan holi bo'lmasligi, turli iqtisodiy xavf-xatarlardan himoyalanish zarurligini ta'kidlab o'tishgan [2].


Iqtisodiy xavfsizlikning asosiy vazifasi sifatida mamlakat ehtiyojlarini uzlusiz ta'minlash hisoblanishi, imkon qadar o'z-o'zini zaruriy mahsulot va xizmatlar bilan ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, respublikamizda ishlab chiqarish mumkin bo'lмаган turli tovar va xizmatlarni chetdan maqbul narxlarda doimiy import qilishga qaratiladi.

Mamlakatimizda "iqtisodiy xavfsizlik" muammolarini keng o'rganish borasida tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlardan B.O.Tursunov ham "iqtisodiy xavfsizlik" ta'rifi bo'yicha yangicha yondashuv asosida ishlab chiqqan bo'lib, bevosita milliy iqtisodiyot mustaqbilligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o'z-o'zidan takomillashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig'indisi sifatida talqin qilgan[3].

Iqtisodiy xavfsizlikni nazariy va uslubiy jihatlarini o'rganish borasida tadqiqotlar olib borgan mahalliy olimlarimizdan J.Sh.To'xtabaev hamda X.F.O'ktamovlar ham iqtisodiy xavfsizlik tushunchasiga o'ziga xos ta'rifni berib o'tishgan, ya'ni "Iqtisodiy xavfsizlik bu mamlakatning iqtisodiy jihatdan mustaqil, barqaror rivojlanishiga qodirligini ta'minlashga yo'naltirilganligi, shuningdek, davlatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi va mustaqiliginini hamda tashqi va ichki tahdidlarga qarshi turish mexanizmini ko'zda tutadi" [4].

3. Tahlil va natijalar

Iqtisodiy xavfsizlik davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan muhofaza qilishga qaratilgan bo'lib, yuzaga kelish mumkin bo'lgan turli xavf-xatarlardan himoyalashga qaratilgan.



Manba: Ilmiy adabiyotlarni tadqiq qilish va umumlashtirish asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik darajalarining tabaqalanishi va ularning mohiyati

"Iqtisodiy xavfsizlik" bevosita milliy iqtisodiyot darajasida makroiqtisodiy kategoriya sifatida muayyan mamlakat milliy iqtisodiyotini tavsiflashi hamda bozor tizimida turli xatarlar borligidan ogohlantiruvchi vosita bo'lib, hatto milliy iqtisodiyot ham bundan holi bo'lmasligi, turli iqtisodiy xavf-xatarlardan himoyalanish zarurligini ta'kidlab o'tishgan [2].

Globallashuv sharoitida mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlik masalasiga e'tibor ortib bormoqda. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini o'rganish keng qamrovli ahamiyatga ega bo'lib bugungi kunda barcha sohalarga kirib kelmoqda.

Yuqorida keltirilgan 1-rasmida bevosita iqtisodiy xavfsizlik darajalarining tabaqalanishi va ularning mohiyatiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, iqtisodiy xavfsizlik darajalari - xalqaro, milliy, hududiy, tarmoq va sohalar hamda korxona iqtisodiy xavfsizligi kabilarga bo'linadi.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va uning ob'ekti nuqta-nazardan quyidagi shakllardan iborat, ya'ni: respublikaning boshqa mamlakatlar oldidagi xavfsizligini ta'minlash; respublikaning tashqi tahdidlarga qarshi turishi va uni oldini olish chora-tadbirlari; respublikaning tashqi xavfsizlik borasidagi siyosati.

Milliy iqtisodiy xavfsizlik quyidagilardan iborat: mamlakatning siyosiy xavfsizligi; harbiy-mudofa tizimidagi xavfsizlik; mafkuraviy-g'oyaviy xavfsizlik; axborot xuruji va kiber xavfsizlik; global iqlim o'zgarishi va ekologik xavfsizlik.

Hududiy iqtisodiy xavfsizlik quyidagilarda namoyon bo'ladi: hududning ishlab chiqarish salohiyati; hudud aholisining yashash darjasи, aholi daromadlari; hududning iqtisodiy vaziyati va davlat byudjetiga qaramligi (dotatsiya ajratilishi); hudud aholisi bandligi, ishsizlik holati va boshqalar.

Tarmoq va sohalarda iqtisodiy xavfsizlikka quyidagilar kiradi: tarmoqlarda resurs ta'minoti bilan bog'liq xavfsizlik; tarmoqlarda texnik ta'minot va ishlab chiqarish quvvatlarining ekskirishi bilan bog'liq xavfsizlik; tarmoq va sohalarda innovatsion o'zgarishlar va monopoliya bilan bog'liq xavfsizlik va boshqalar.

Korxona iqtisodiy xavfsizlik tarkibi esa o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: korxonaning resurs ta'minoti bilan bog'liq xavfsizlik; korxonaning kadrlar qo'nimsizligi bilan bog'liq xavfsizlik; korxonaning moliyaviy resurs bilan bog'liq xavfsizlik; korxonaning to'lovga qobiliyatsizlik bilan bog'liq xavfsizlik.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda iqtisodiy xavfsizlik davlatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan muhofaza qilishga qaratilgan bo'lib, yuzaga kelish mumkin bo'lgan turli xavf-xatarlardan himoyalashga qaratilgan. Shuningdek, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash asnosida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sub'ektlar faoliyatini turli xavf-xatarlardan himoya qilishni tartibga solishning amaliy jihatlariga ham e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlari tomonidan ham iqtisodiy xavfsizlikning nazariy va uslubiy jihatlari borasida o'z tadqiqotlarini olib borgan V.V.Karpova va A.A.Korablevoy kabi olimlar tomonidan iqtisodiy xavfsizlik masalasi hududiy nuqtai-nazardan ko'rilgan bo'lib, "...mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning maqsadi ma'lum bir

darajada qulay shart-sharoitlar va turli ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etgan holda iqtisodiyotning maqbul holatiga erishishdir. Shuningdek, turli inqirozlar yuz bergan davrda davlat iqtisodiyotining barqaror bo'lishiga erishishi va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashi kerak" deb ta'kidlab o'tgan[5].

Rossiyalik olim A.E.Gorodeskiy tomonidan "har bir mamlakat milliy iqtisodiy suvernitetiga ega bo'lib, milliy iqtisodiy manfaatlar, milliy suveren huquqlar va erkin rivojlanishida ishonchli himoyalanishni ta'minlashi kerak. Davlat bevosita jamiyat, tadbikorlik, ijtimoiy shaxsni o'tish davrining turli chaqiriq va tahdidlaridan, turli xavfsizlardan, turli inqirozlardan, global va ichki mavsumiy tebranishlardan, noqonuniy tashqi va ichki iqtisodiy cheklovlardan, turli sanksiyalardan, to'siqlar va iqtisodiy urushlarni oldini olish maqsadida xavfsizlik hamda iqtisodiy xavfsizlik choralarini kuchaytirish zarur" ligi haqida o'z qarashlarini ilgari surgan [6].

L.N.Rodionova ham o'z izlanishlarida iqtisodiy xavfsizlik har qanday ishlab chiqarish tarmoqlarida barcha resurslardan va tadbirkorlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish natijasida erishiladigan iqtisodiy barqaror darajada, mutanosib va uzlusiz rivojlanishni ta'minlashi hamda ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda ichki tahdidlarning oldini olishga qaratilishi lozimligini ta'kidlaydi. Biroq, ushbu ilmiy yondashuvning kamchiligi bevosita atrof-muhit omillarini e'tibordan chetda qolganligi bilan izohlanadi [7].

Darhaqiqat, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda ishlab chiqilgan iqtisodiy xavfsizlik parametrlariga amal qilinishi, davlat miqyosida ham korxonalar faoliyatini ham tartibga solishda muhim ahamiyatga ega.

4. Xulosa va takliflar

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bevosita davlat xavfsizligi negizida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashni ham talab etadi. Shu bois, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga doir qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujatlarni o'rganish, ularni amalgaloshirish jarayonlarini nazorat qilish va takomillashtirish muhim masalalardan biridir. Xulosa o'rnida aytish joizki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash nafaqat ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohalarini iqtisodiy jihatdan muhofaza qilishni balki mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti uchun g'oyat muhim masalalardan biri sifatida tadqiqot maydoni bo'lib qolaveradi.

5. Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi// Xalq so'zi, 25 yanvar, 2020 yil.

2. X.S.Asatullaev, A.A.Mamatov, T.T.Jo'raev. Iqtisodiy xavfsizlik (Darslik). - T.: "TMI nashriyoti", 2023. 654-bet.

3. B.O.Tursunov. "Iqtisodiy xavfsizlik". O'quv qo'llanma.-T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi", 2021. 344-bet.

4. J.Sh.To'xtabaev, X.F.O'ktamov. Xavfsizlik va texnologiya. O'quv qo'llanma.-T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi", 2021. 208-bet.

5. B.B.Karpova, A.A.Korablevoy. Теория и практика оценки экономической безопасности (на примере регионов Сибирского федерального округа) / под общ. ред.

Б.В. Карпова, А.А. Кораблевой. – Новосибирск: издательство ИЭОПП СО РАН, 2017. – 146 с.

6. А.Е.Городецкий. Экономическая безопасность России в эпоху глобальных перемен.//А.Е.Городецкий// Стратегия экономической безопасности России: новые ориентиры развития: Сборник научных трудов I научно-практической конференции «Сенчаговские чтения» ученых, специалистов, преподавателей вузов, аспирантов (Москва, 14 марта 2017 г.). –Москва: Институт экономики РАН, 2017. – 265 с.

7. Л.Н.Родионова. Экономическая безопасность как фактор обеспечения конкурентоспособности хозяйствующих субъектов / Л.Н. Родионова // Вестник УГАТУ. 2013. – Т.17. – №7. – С.61-66.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

